

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLI: 2018-2023



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 л



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная
формула:
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота:
1400 мм

Колея задняя:
1190 мм

Колёсная база:
1450 мм

Длина: 2400 мм




TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
25-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-25**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-25**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси-дан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Axmedov Mahkamboy Umrbek o'g'li

OROL DENGIZI SUV SATHINING PASAYISHI NATIJASIDA TABIIY TIZIMLARDA O'ZARO BOG'LIKLIKNING O'ZGARISHI.....	7
--	---



ГЕОГРАФИЯ

OROL DENGIZI SUV SATHINING PASAYISHI NATIJASIDA TABIIY TIZIMLARDA O'ZARO BOG'LIKLIKNING O'ZGARISHI

Axmedov Mahkamboy Umrbek o'g'li
Urganch Davlat Universiteti

Annotatsiya: Maqolada Orol dengizining 1960 yilga qadar tabiiy-geografik holati, keyinchalik inson xo'jalik faoliyati ta'sirida sodir bo'layotgan xavfli jarayonlar va uning oqibatlari haqida to'xtalgan.

Tayanch so'zlar: Orol dengizi, Orolbo'yi, suv sathi, delta, ekotizim, landshaft, galofit landshaft,

Kirish: Bugunga kelib, regional ekologik muammolardan global ekologik muammoga aylangan Orol va Orolbo'yi muammosi nafaqat O'rta Osiyo, balki Jahon jamoatchiligining ham e'tiborini tortmoqda. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'likligidan, bu ikki daryo suvi sug'orishga ko'p sarflanganidan, dengizda suv kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamayishi ortdi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi. Hududda Orol dengizining chekinishi oqibatida uning o'rnida maydoni besh million gektarda qumli-sho'rhokli hududlarda o'ziga xos yangi landshaftlar shakllandi. Buning natijasida Orolbo'yida tabiiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Orol muammosi vujudga keldi. Orol muammosi, dengiz sathining borgan sari pasayib borayotganligi tufayli yanada murakkablashmoqda va bu muammoni hal qilish tobora qiyinlashmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda Orol dengizi sodir bo'layotgan tabiiy geografik o'zgarishini o'rganish va tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Orol dengizi sathining 1961 yildan boshlab to'xtovsiz tushishi natijasida, hozirgi vaqtda butun Orol bo'yi zonasida tabiiy-geografik komplekslarda muhit hosil qiluvchi jarayonlarning dinamikasini tezlashtiruvchi sharoit vujudga keldi. Orol bo'yi zonasida tabiiy-geografik sharoitning yomonlashuvi jarayoni ancha keskinlashib ketdi. Tabiiy-geografik muhitning chuqur o'zgarishi nafaqat dengizning qurigan qismi, balki butun dengiz bo'yi atrofi zonasini, Sirdaryo va Amudaryo deltasi tekisliklarini, Qoraqum va Qizilqum sahrolarining dengizga yaqin uchastkalarini qamrab oldi. Ikki daryo deltalarida sahrolanish jarayoni sodir bo'ldi. Amudaryo va Sirdaryo deltalarida doimiy yuqori namlik bilan ta'minlanib turilgan xarakterli to'qay landshaftlari yo'qolib qoldi. Orol bo'yi zonasida sug'orilib ekin ekiladigan yerlar qisqarib, tuproqlar sho'rlandi. Deltadagi o'tloqzorlar maydoni kamayib, taqirlar va sho'rxoklar ko'payib, sho'rxokli sahrolar kengayib bormoqda. Qurigan dengiz tagida esa galofit landshaftlar paydo bo'lmoqda. Yer osti suvi sathining tushib ketishi natijasida Amudaryo va Sirdaryo deltalari yonidagi juda katta saksavulzorlar kamayib bormoqda. Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilyotgan chora tadbirlar natijasida, Orol dengizining 363 ming gektar qurigan maydoniga saksovul urug'lari ekildi va bu jarayon davom etmoqda. Avvallari qulay tabiiy-geografik sharoit mavjud bo'lgan davrlarda tabiiy komponentlar: relef-tuproq, suv-o'simlik, hayvonot dunyosi o'rtasida muntazam o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik va harakat hukm surgan. Chunki bu moslashuv bir necha ming yillar davomida rivojlanib kelgan. Bu sharoit inson yashashi uchun qulay tabiiy-geografik sharoit edi. Amudaryo va Sirdaryoning o'z deltalari panjasimon bir necha sersuv tarmoqlarga bo'linib, keyin dengizga quyilishi, har bir o'zanning ikki chekkasi parandalarning makoni, quyuq noyob to'qayzorlar bilan bandligi, o'zanlar oralig'ida baliqlarga liq to'la hisobsiz ko'llarning mavjudligi, daryo toshqini vaqtida bir necha yuz minglab gektar maydonlarni suv



bosishi natijasida keng pichanzorlar, yaylovlarning barq urib o'sishi, deltalarda hayot belgisi – suvning mavjlanib turishi – Orolning 60-yillardagi qiyofasi ana shunday edi. Ana shu tabiiy-geografik sharoitda, tabiiy-geografik muvozonat to'lig'i bilan mavjud bo'lib, tuproq xususiyati o'simliklarning normal o'sishi uchun qulay, namlik tirik organizmlarning hayoti uchun ham sifat, ham miqdor jihatidan ma'qul edi, jonivorlar uchun don va oziq-ovqat, baliq va ondatralarning muntazam ko'payib turishi uchun ko'llar juda ko'p edi, ya'ni tirik tabiat bilan jonsiz tabiat birlariga juda ham mos edi. 1961 yildan boshlab Orol dengizi sathining to'xtovsiz pasayishi hamda deltalar suv rejimining jilovlanishi Orol atrofida tabiiy-geografik muvozonatning borgan sari izdan chiqishiga va nihoyat buzilishiga olib keldi. Bu muvozonat qaysi sharoitda va qaysi omillar ta'sirida buzildi. Olimlarning tushuntirishiga ko'ra, 60-yillarga qadar Amudaryo deltasiga daryo orqali 50 km³ yaqin suv kelib turgan bo'lsa, shundan 8,0 km³ suv ko'l, botqoqliklarni to'ldirish hamda bug'lanish va uning transpiratsiyasiga sarflanib turgan edi. Sirdaryo deltasida esa, 3 km³ suv sarf bo'lar edi. Shu miqdordagi suv hajmining doimiy ravishda kamayib borishi gidromorf tabiiy-geografik sharoitning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Chunki bu hududlarda organik hayotning rivojlanishi va taraqqiyoti suv rejimining muntazam barqarorligiga asoslangan edi.

Suv rejimining izdan chiqishi birinchi navbatda o'simliklarning vegetatsiya sharoitlarini murakkablashtirdi. Faqat suvda rivojlanuvchi gigrofitlar (qamish, suv o'tlari) birinchi navbatda quridi, muntazam namgarchilikka asoslangan to'qay o'simliklari (turang'il, jiyda, tol va hokazo) quriy boshladi. 1960 yilga qadar Amudaryo va Sirdaryo deltalarida daryo toshqinining har yili muntazam sodir bo'lib turishi munosabati bilan bu yerlarda ko'l-botqoq, to'qay va dengiz bo'yi tabiiy komplekslari tarkib topgan edi. Hamma joyni suv bosishi tufayli eng ko'p maydonni qamishzorlar egallagan edi. Qamishli to'qayzorlar Amudaryo deltasida 800 ming gektarni, Sirdaryo deltasida esa 220 ming gektardan ko'p maydonni qamrab turar edi. Qamishzorlar, bir tomondan, yem-xashak hamda tabiiy yaylov o'rnida, ikkinchi tomondan, qurilish materiallari sifatida foydalanilgan. Qamishzorlar turli hayvonlar, baliqlar, ondatralar, nutriyalar, qushlarning yashash va ko'payish makoni hisoblanar edi. Ma'lumotlarga ko'ra, faqat Qoraqolpog'istonning o'zida qamishzorlar hisobidan har yili 5 mln. t yem-xashak tayyorlash mumkin edi. Sirdaryoning hozirgi va qadimgi deltalarida va vodiysida hammasi bo'lib 2 mln. ga maydonda suv bosuvchi o'tloqzorlar, pichan o'riladigan yaylovlar va to'qayzorlar mavjud bo'lib, bu yerlarda har yili bir necha o'n minglab qoramol, ot, qo'y-echkilar boqilar edi. Tuproqda namning qurib borishi va sizot suvlari sathining pasayib, minerallashish darajasining oshib borishi, suvning kimyoviy tarkibida gidrokarbonat – kalsiyning gidrokarbonat-sulfat, keyinchalik xlorid-sulfat tuzlari bilan almashishi tabiiy-geografik sharoitni butunlay o'zgarishiga olib keladi, chunki avvallari sho'rsiz muhitda rivojlanib kelgan o'simliklar tuzli va qurg'oqchilikka bardosh beruvchi organik dunyo bilan almasha boshladi. Tuproqda namlikning yo'qolishi, bir vaqtlar mavjud bo'lgan zich to'qay o'simliklarining keyinchalik qurib ketishi hamda shamol harakatining faollashuvi tuproqning eroziyaga beriluvchanligini oshirmoqda. Natijada, qumoq tarkibli va qumdan iborat yerlarning chuqurligi ortib ketmoqda, ba'zan esa, qumlarning bir joyga to'planishi natijasida barxanlar tashkil topmoqda. Shamolning tuproq ustini yalab ketishi yuqori qismidagi boy chirindilarning turli tomonlarga to'zib ketishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, avvalgi qulay tabiiy-geografik sharoitning buzilishi va uning yangi, ushbu o'lka uchun maqbul bo'lmagan hamda tez o'zgaruvchi tabiiy-geografik muhit bilan almashishi bir necha ming yillar davomida taraqqiy qilib kelgan turg'un gidromorf tabiiy muvozonatning buzilishiga olib keldi. Unda turg'un bo'lmagan va tez o'zgarib turuvchi muvozonatlik tarkib topmoqda. Bunday vaziyat Amudaryo deltasi (8 km³) hamda Sirdaryo deltasiga (3 km³) nihoyat kam darajada suv kelishi tufayli sodir bo'ldi. Bu tuproq va o'simliklar tanasida sodir bo'ladigan bug'lanishlarning oshib ketishi, tuproqda tuzning haddan tashqari ko'p to'planishiga, sizot suvlari sathining pasayib, kimyoviy tarkibini o'zgarishi va nihoyat, shu hodisalar majmuasi natijasida o'simlik dunyosining qurg'oqchil va sho'r muhitga mos keluvchi boshqa turlar bilan almashuviga olib keldi.

Orol bo'yida tabiiy-geografik muvozonatning buzilishi Orolning atrof-muhitini qishda ilitib va yozda namlikni rostlab turish xususiyatining yildan-yilga o'zgarib borishi bilan ham bog'liq. Chunki 60-yillardan boshlab bu vaziyatning izdan chiqishi Orolbo'yida tabiiy muvozonatning buzilishini tezlashtirishga olib keldi. Orol dengizidagi bug'lanish hisobiga atrofda katta maydonlarda mavjud bo'lgan o'simlik va yaylovlar namlik bilan ta'minlanar edi. Orol bo'yida qora va oq saksovullar hamda boshqa yirik butalar sahrolarning boshqa joylaridagiga qaraganda zichroq. Chunki tabiatning bu ko'rinishi Orol sathida ko'tarilayotgan namlikning bir qismini ushbu



o‘simliklar va yaylovlar tomonidan o‘zlashtirilishi natijasidir. Endilikda, Orol dan kelayotgan namlik miqdori keskin darajada qisqarmoqda, bu esa, o‘z navbatida, Orol bo‘yida o‘simliklarning normal rivojlanishiga borgan sari salbiy ta‘sir etmoqda. Bu hodisa ham o‘z navbatida tabiiy-geografik tizimlardagi o‘zaro bog‘liqlikning buzilish sabablaridan biridir. Xo‘sh, tabiiy-geografik o‘zaro bog‘liqlikning (muvozanatning) buzilishi qanday salbiy oqibatlarga olib keldi? Umuman olganda, tabiiy-geografik komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning buzilishi hududni sahroga (cho‘lga) aylanish hodisasini keltirib chiqardi va uning mintaqa bo‘yicha taraqqiy qilishiga turtki bo‘ldi. Sahroga aylanish hodisasini rivojlantiruvchi omillar shu darajada taraqqiy qildiki, avvalgi gidromorf tabiiy-geografik sharoitlarning butunlay o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Binobarin, mintaqaning tabiiy imkoniyatlari butunlay izdan chiqmoqda. Bu hol insonning yashash ekologik sharoitlari tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Masalan, aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash nihoyatda murakkablashib qoldi. Orol muammosi faqat geografik-ekologik masalalarni o‘z ichiga olmasdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy, sanitar-gigienik, texnologik, milliy, xuquqiy-etnik va boshqa qator masalalarini qamrab oladi.

Xulosa: Shu kungacha olimlarning olib brogan izlanishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, Orolbo‘yida ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishning juda muhim metodlaridan biri, bu Orol va Amudaryo deltasida bufer zonalar sifatida mahalliy suv havzalarini yaratish va shu bilan birga qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamli mahalliy buta o‘simliklardan foydalangan holda o‘rmon zonalarini yaratishdir. Bularga suv manbai sifatida tashlandiq, kollektor, drenaj va toshqin suvlari xizmat qiladi.

Bu yashil himoya zonalarini va boshqariladigan kichik suv havzalari, madaniy landshaftlar cho‘llanish jarayonini oldini olish, mikroiklimni yaratish imkoniyatini beradi va Amudaryo deltasida tabiiy resurslarni tikash, chang va tuz bo‘ronlarini harakatini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Л Бергъ «АРАЛЬСКОЕ МОРЕ» опыт физико-географической монографии С.Петербург 1908 г
2. Рафиков А.А. Орол денгизи муаммолари.–Т.: Ўзбекистон, 1978
3. Рафиков А.А. Природные условия осушающегося Южного побережья Аральского моря. – Т.: Фан Уз ССР, 1982.
4. Попов В.А. Проблема Арала и ландшафты дельты Амударьи. – Т.: Фан Уз ССР, 1990
5. Геллер С.Ю. Некоторые аспекты проблемы Аральского моря // Проблемы Аральского моря. – М.: Наука, 1969.
6. “Orolbo‘yida antropogen iqlim o‘zgarishi va uning ekosistemalarga (landshaftlarga) ta‘siri” Gulimmatov I.B Magistr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Samarqand-2017
7. В.А.Духовного, П.Навратила, И.Рузиева, Г.Стулиной, Е.Рощенко “Комплексные дистанционные и наземные исследования осушенного дна Аральского моря” Научно-информационный центр МКВК, Ташкент 2008

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 25-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
